

*Komilova Dilshoda Ulug'bek qizi*

*Namangan davlat universiteti 3-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbari: Rahmatova Hayrihon*

## IJTIMOY GENDER TENGLIK MASALASI VA MOHIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lgan gender tengligining ahamiyati va ijtimoiy mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender tengligi, inson, inson, ijtimoiy muammo, xotin-qizlar, jamiyat, qonun.

Ma'lumki, dunyoda 278 ta davlatning barchasida qonun-qoidalar turli xil. Shuningdek, jamiyatda xotin-qizlarga qaratilgan imkoniyatlar cheksizligi va chegarasi ham bir xil emas. Ammo, bugungi kunda ko'plab davlatlar ayollar huquqini himoya qilish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilmoqda. Lekin, aksariyat xotin-qizlar bu imkoniyatdan xabardor emas yoki imkoniyatlardan foydalanmaydi. Buning negizi esa ularning 70% gender tengligining asl mohiyatini bilmasligidan dalolat.

Bugungi kunda gender tengligi masalalari bo'yicha qarorlar imzolagan davlatlar qatorida albatta, O'zbekiston ham bor. Mamlakatimizda so'ngi besh yil davomida gender tenglik masalasiga ulkan ahamiyat berilmoqda. Gender tenglik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan va qo'llab-quvvatlash zarurligi e'tirof etilayotgan muxim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida faoliyatining ilk kunlaridanoq asosiy e'tiborni ayollar va oila muammolariga qaratib kelmoqda. Natijada o'tgan davrda gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 aprelda qabul qilingan "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori shular jumlasidandir. Ushbu qaror mohiyatan inson huquqlarini himoya qilish, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, umuman, jamiyatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga huquqiy kafolat hisoblanadi. Mazkur Qonun davlatimiz rahbarining 2019 yil 7 martda qabul qilingan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda gender tushunchasiga ham ta'rif berilgan. Gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarinigina ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, ularga hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berishni huquqiy kafolatlaydi. Binobarin, har qanday rivojlangan demokratik jamiyatning muhim talablaridan biri ham shu — ayollar va erkaklar huquqlari tengligining ta'minlanishidir.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Inson huquqlari bo'yicha

Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, salomatligini mustahkamlash, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Bu esa dunyoni orgimchak tori kabi o'rab olgan bozor iqtisodiyotining beshafqat o'yinlari, talablariga mos hayot kechirishimizda juda muhim. Biz istaymizmi, yoqmi, jahon hamjamiyati bilan teng odimlashga majburmiz. Yo'qsa, xastahol inson jamiyatdan uzoqlashgani yanglig' dunyodan uzilamiz. Ko'pni ko'rgan insonlar duoga qo'l cho'zgan chog'ida, albatta,

tilga olinadigan bir tilak bor: «Issiq o'rnimiz yo'qolmasin». Jamiyatda erkakning ham, ayolning ham o'z o'rnini bor. Gender tenglik haqida mulohaza yuritganda, masalaning ushbu jihatini ham esdan chiqarmaslik kerak.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., —O'zbekiston nashriyoti. 2021., -b 9
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 13
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 26февраль куни хотин-қизларнинг муаммоларини ҳал қилиш ва уларни ижтимоийқўллаб-қувватлаш масалалари муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилишиматериаллари
4. Ўзбекистон рақамларда 1991-2018. Статистик тўпламлари
5. Джумабаева Шоира. Ўзбекистон рақамларда Qoraqolpog'istonda nikoh-oilamunosabatlarining ijtimoiy-demografik omillari OILA INSTITUTNING IJTIMOYTARAQQIYOTDAGI O'RNI VA OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASHOMILLARI. Namangan. 2019 yil. 1991-2018. Statistika tўplamlari.